

 YOSHLAR
KUTUBXONASI

STENDAL

QIZIL VA QORA



STENDAL

QIZIL VA QORA

1830-yil xronikasi

Ruschadan Hasan To‘rabekov tarjimai



Yoshlar nashriyot uyi
Toshkent – 2018

UO‘K 821.133.1-31
KBK 84(4Fra)
S 91

Stendal

Qizil va qora: 1830-yil xronikasi: Roman. Ruschadan H. To‘rabekov tarj. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 576 b.

Jahon adabiyotining mumtoz asari sanalgan “Qizil va qora” romani har bir zamonga zamondoshdir. Ushbu asarda yosh o‘smir yigitning muhab-bati orqali kuchli ehtiros, ongsiz hissiyot, shuhratga chanqoqlik va ular o‘rtasidagi kuchli to‘qnashuvlar mahorat bilan tasvirlangan.

UO‘K 821.133.1-31
KBK 84(4Fra)

ISBN 978-9943-5318-4-0

© Yoshlar nashriyot
uyi, 2018

«MEN HAQIQATNI SEVARDIM...»

Odatdagi tashvishli kunlarining birida Stendal gazetalarni varaqlab o'tirib, g'alati bir xabarni o'qib qoladi: Grenobl shahar sudi Antuan Berte ismli navnihol yigitni o'lim jazosiga loyiq topibdi. Aybdor sudning shafqatsiz hukmini zo'r quvonch, iftixor bilan qarshi olgan. Gazetaning yozishicha, Antuan Berte oddiy qishloq temirchisining o'g'li bo'lgan. Qishloq ruhoniysi romantik tabiatli bu yigitga homiylik qilgan. O'n to'qqiz yoshga to'lar-to'lmas aqli, zakovati va o'tkir zehni bilan tanilgan Antuan butun viloyatga dong'i ketgan Mishu de Latur xonadoniga tarbiyachi bo'lib ishga joylanadi. Oradan ko'p vaqt o'tmay serhayaJon, xushqomat, sog'lom, har bir xatti-harakatida qizg'in yigitlik nafasi ufurib turgan tarbiyachi bilan o'ttiz olti yoshga qadam qo'ygan suluv de Latur xonim orasida ishqiy roman boshlanadi. Qizg'in ehtiroslar bilan to'lib-toshgan bu roman shiddat bilan davom etayotgan bir paytda to'satdan uzilib qoladi. Sir ko'pchilikka oshkor bo'lib, tarbiyachi o'zi sevib qolgan xonadonni tark qilishga majbur bo'ladi. Bir paytlar homiylik qilgan ruhoniy Antuanning aybini tezroq yopib yuborish maqsadida uni shosha-pisha diniy seminariyaga joylab qo'yadi. Noaniq sabablarga ko'ra, seminariya eshiklari ham yigit uchun taqa-taq yopilib qoladi. U o'ziga munosib ish izlab, Kordon ismli badavlat kishining xonadoniga tarbiyachi bo'lib xizmatga kiradi. Yana o'sha eski roman qayta boshdan takrorlanadi: bu safar Kordon xonimning sho'x-shaddod, hazilkash, ishqiy romanlar ta'sirida tarbiya topgan qizi bilan ishqiy roman boshlanadi. Yigit yana ishdan haydaladi. Shu-shu, kuchini qayerga qo'yishni bilmay yurgan ishqparast yigitning omadi yurishmay qoladi, ishsizlik joniga tegadi, hayotdan bezadi. Baxtsiz bo'lib qolishining sabablarini de Latur xonimdan deb bilib, yakshanba kuni cherkovda ibodat qilayotganida unga pistoletdan o'q uzadi va so'ngra o'zini ham o'ldirmoqchi bo'ladi. Lekin yigitning niyati amalga oshmay qoladi. Antuanni sudga berishadi. U sudda o'zini mag'rur tutib, aybini yashirmaydi, aksincha,

o'ziga qattiq jazo berilishini talab qiladi. O'limi oldidan: «Men haqiqatni sevardim... Lekin qani u?.. Hammayoqda faqat riyokorlik yoki eng kamida, firibgarlik, hatto eng diyonatli, eng ulug' odamlar ham bundan mustasno emas», – deya jon beradi. Shapaloqdek keladigan gazeta xabari, ayniqsa, Antuan Bertening o'lim oldida entikib: «Men haqiqatni sevardim...» degan otashin so'zlari qirq olti yoshga qadam qo'ygan Stendalni qattiq hayajonga solgan.

Yozuvchi gazetani qo'ldan qo'ymay, bir zungina hadsiz-hisob-siz xayollar og'ushiga ko'miladi. Ehtimol, shu payt uning xayolida Napoleon armiyasi safida Rossiyaga kirib borgani, so'ngra achchiq mag'lubiyat, Italiyaga qilgan sayohatlari, shahar meri bo'lish haqidagi orzu-umidlari, sevgi iztiroblari, romantik tuyg'ularining chil-chil bo'lishi, hayotning shafqatsiz zarbalari gavalangan bo'lsa ajab emas. Nima bo'lganda ham gazeta xabari jahon adabiyotining nodir asarlaridan biri bo'lmish «Qizil va qora» romanining yozilishiga turtki bo'lgani aniq.

Axir o'zingiz bir o'ylab ko'ring, Stendal «Qizil va qora» romanini yozguniga qadar ham qator romanlari, dramalari, «Italiyada tasviriy san'at tarixi», «Gaydn, Motsart va Metastazio», «Rossining hayoti», «Rasin va Shekspir», «Xudbinning xotiralari», «Anri Bryularning hayoti» singari risolalari bilan keng o'quvchilar ommasiga tanish edi. Lekin baribir tan olib aytish kerakki, zabardast romannavis sifatida adibning shuhratini olamga yoygan nafasi o'tkir asarlardan biri «Qizil va qora» romanidir. Didli kitobxon gazeta xabarida keltirilgan faktlar bilan roman voqealarini bir-biriga solishtirsa, ular orasidagi o'xshashlikning naqadar yaqin ekanini sezib olishi qiyin emas. Bu – shunchaki yuzaki o'xshashlik. Aslida, romanning yozilishiga turtki bo'lgan jinoyat xronikasi barkamol ijtimoiy-psixologik roman darajasiga ko'tarilgan.

«Qizil va qora» romani vaqt shamollarini pisand qilmay, o'sha-o'sha nafasoti va o'sha-o'sha tarovati bilan ham odamlar qalbiga ezgulik, haqiqat urug'ini ekib kelmoqda. Xo'sh, bu hodisaning siri nimada?

Ushbu savolga javob berishdan avval «XX asr – ilmiy-texnika asri, shunday ekan, jajji romanlar yozish payti keldi, kelajak jajji romanlarniki» degan fikrga jinday to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi. Bu fikrlarda ma'lum darajada jon ham bor, albatta. Ammo boshqa bir tan olingan haqiqatni ham aytmadan ilojimiz yo'q. Xo'sh, nima uchun o'n-o'n besh-ta jajji romanlarga baravar keladigan L. Tolstoyning «Tirilish», «Anna Karenina», Stendalning «Qizil va qora», «Parma ibodatxonasi» singari qalin jildli romanlarida ko'tarilgan masalalar, qahramonlarning taqdiri

yosh-u qarini bab-baravar hayajonga soladi? Sababi, bu romanlarda A. Fadeevning obrazli iborasi bilan aytganda, «davr dramasi» haqqoniy aks ettirilgan. Sababi, qahramonlarning ezgulik, adolat yo'lida olib borgan kurashlari chuqur ichki dard bilan ifoda qilingan.

Bu fikrlar «Qizil va qora» romani qahramonlariga ham taalluqli. O'rta bo'yli, ko'rinishidan ancha nimjon, g'oyatda nozik, qirg'iyburun Jyulen Sorelning metindek irodasi borligini darrov sezib olish qiyin. Agar Jyulenning orzu-xayollari bilan yaqinroq tanishsangiz, uni havoyi xayolparast, deb o'ylash ham mumkin. Nima uchun desangiz, u mustaqil hayot yo'liga chiqib olganiga qadar goh ofitser, goh shahar meri, goh rohib, goh diplomat bo'lishni orzu qiladi, – qo'ying-chi, uning barcha orzu-havaslarini sanab bitkazish qiyin.

Men Jyulenning hayoti bilan ilk bor tanishganimda (bu voqea elliginchi yillarning oxirlari va oltmishinchi yillarning boshlarida ro'y berdi) darrov Servantesning Don Kixoti bilan Yaroslav Gashekning shovvoz Shveykining xatti-harakatlarini ko'z oldimga keltirgan edim. Ularning hayotida bir qarashda ko'zga tashlanmaydigan ichki o'xshashlikni izlagan va topganday ham bo'lgandim. Negaki, Servantes «Telba qiyofa»dagi Don Kixot obrazi orqali mavjud shart-sharoitni tan olishni istamaydigan kishilar obrazini haqqoniy yaratib bergan. Bu g'amginqiyofa ritsar haqoratlangan va ezilganlarga homiy bo'lishni istaydi, dunyodagi zo'ravonlik va zulmni tag-tomiri bilan yo'q qilishga intiladi, u jahonda adolat va erkinlik o'rnatishni orzu qiladi. Yaroslav Gashekning o'z sevimli qahramonini ardoqlab aytgan «ulug' davrga ulug' kishilar kerak. Lekin Napoleon shuhratiga erishmagan, hech kim tomonidan tan olinmagan, kamtarin qahramonlar ham bor olamda... Biroq diqqat bilan qaralsa, ularning shuhrati oldida hatto makedoniyalik Iskandarning shuhrati ham ip esholmay qoladi», degan dono so'zlarida va Shveykning xatti-harakatida shu so'zlarni tasdiqlovchi hikmat bor. Ularning adolat tantanasi uchun kurashishlarida ma'lum bir o'xshashlik bor. Lekin bularning har biri o'z havosidan nafas olib, yakka holda mavjud tuzumga qarshi kurash olib boradi. Jyulenning kurashi – ko'proq uning noroziligida, jamiyat ustunlari hisoblanmish amaldorlarni yomon ko'rishida, eng muhimi, haqiqatni sevishida...

Jyulenning ilk bor tarbiyachi sifatida Verrer shahrining meri janob de Renal xonadoniga kelgan paytini ko'z oldingizga keltiring:

«Hayratdan de Renal xonimning tili kalimaga kelmay qoldi: ular bir-birlariga tikilishganicha bir zum turib qolishdi. Jyulen umri bino bo'lib bunday chiroyli kiyingan ayolni ko'rmagan edi. Uni yanada

ajablantirgan narsa yuzi sutdek oppoq bu xonimning u bilan muloym gplashgani bo'ldi. De Renal xonim dehqon yigitchaning avvaliga dokadek oqarib ko'ringan, endi esa loladek qizarib ketgan yuzidan dumalayotgan yirik-yirik yosh tomchilariga tikilib turardi. Keyin xonim qo'qqisdan xuddi yosh qizaloqlarga o'xshab qahqaha otib kula boshladi. U o'z ustidan xaxolab kular va xursandligidan o'zini sira to'xtata olmas edi. Tarbiyachi deganlari shumi hali? U bo'lsa o'g'illariga baqirib, ularni xivich bilan savalaydigan isqirt popni tasavvur qilib yuribdi».

Yigitni de Renal xonim kutib oladi. «Baland bo'yli, qaddi-qomati kelishgan de Renal xonim bir vaqtlar butun viloyatda eng sahibjamol ayol hisoblangan. Xushxulq ayol sifatida shuhrat topgan bu xonimning shaydosi bo'lgan ko'plar. U tabiatan g'oyat tortinchoq bo'lib, bunday suluv juvonlarga o'xshab o'ziga zeb berishni xayoliga keltirmaydi. Faqat osuda bog'larda sevimli o'g'lonlari bilan sayr qilib yursa bas. Uni biron ko'rgan odam quvlik va shumlikni bilmaydigan de Renal xonimning chehrasidan nur yog'ilib turishini sezmasligi mumkin emas.

Jyulen bilan de Renal xonim orasida tug'ilgan muhabbat shu qadar harorat, ehtiros bilan va shu qadar tabiiy hamda tiniq tasvirlanadiki, kitobxon beixtiyor ravishda ularning musaffo tuyg'ulariga maftun bo'lib qoladi. Kitobxonlar sevishganlar bilan birga bog'-u rog'larni sayr qilishadi, tog'-toshlarga chiqishadi. Parijning turmush tarzi, cherkovlari, rohiblar, shahar merlari va boshqa nufuzli kishilar bilan tanishadi. Shu tariqa qahramonlar yashagan jamiyatning haqqoniy kartinasi chiziladi.

Tadqiqotchilar «Qizil va qora» romani atrofida fikr yuritganlarida Jyulenning har bir xatti-harakatidan Stendalni izlaydilar. Bu, bir jihatdan qaraganda, to'g'ri. Adibning hayotida ro'y bergan voqealar, ayollarga munosabatlari Jyulennikiga ancha o'xshab ketadi. Stendal kundalik daftarida Jyulenning ideallarini tasdiqlovchi «Hayot juda qisqa. Shunday ekan, sen ifloslar oldida hech qachon titrab-qaqshama», degan so'zlarni tez-tez uchratamiz. Adib bir qahramonning muhabbat masalasida tutgan yo'llari va qarashlarida ham o'xshashlik izlarini sezish mumkin. Aytaylik, Stendal odamlardagi shiddatkorlik va jo'shqinlikni alohida mehr-muhabbat bilan ardoqlab kelgan. Muhabbat mavzusida maxsus risola yozishining boisi ham shu tufayli bo'lsa ajab emas. «Qizil va qora» romani, ehtimol, o'sha risolaning mantiqiy davomi ekanini kim ham inkor qila oladi?

Adibning e'tiqodi va tushunchasiga ko'ra, sevgini to'rt xil turga ajratish mumkin. Birinchisi, bu yurak amri va faqat yurak bilan sodir bo'ladigan sevgi; ikkinchisi, yurak amridan ko'ra havas bilan va faqat havas orqali ulanadigan munosabatlar; uchinchi va to'rtinchisi, ma'lum maqsadlar, hisob-kitoblar asosiga qurilgan «muhabbat»dir.

Jyulen bilan de Renal xonimning muhabbati omonat munosabatlar yoinki bir lahzalik ishqiy tuyg'ular asosiga qurilgan emas. Ularning tuyg'ulari kamalak rangi singari jimirlab, tovlanib tursalar ham shafqatligi, tiniqligi, go'zalligini yo'qotmaydi.

Taniqli fransuz yozuvchisi va tanqidchisi Andre Morua «Qizil va qora» romanida tasvirlangan xotin-qizlar obrazlari xususida fikr yurita turib, ular tasvirida sxematizmning izlari borligini qayd qilib o'tadi. Bilmadim, bu fikrlar qanchalik haqiqatga yaqin keladi. Ammo shunisi aniqki, de Renal xonim ham, Matilda ham jonli qilib tasvirlangan. Ammo bu ayollar, hatto Jyulen ham o'zlari yashab turgan jamiyat bilan ideallari orasida uzilishni his qilmaydilar. «Qizil va qora» romani qahramonlarining ham zaif tomonlari ana shu haqiqat bilan tayinlanadi.

Stendalning shohona «Qizil va qora» asari birinchi bor o'zbek tiliga ag'darildi. Gapning rosti, tarjimani biroz hadiksirab, ikkilanib qo'lga oldim. Stendal singari buyuk san'atkorning ma'naviy intilishlarini, badiiy bo'yoqlarini o'ziga xos tarzda o'zbek tilida gavdalandirish faqat iste'dodli, adib so'zlarining qadrini tushunadigan tarjimonninggina qo'lidan keladi. Roman tarjimasini o'qib, yana bir marta Jyulenning otashin sevgisi, de Renal xonimning iztiroblari, qahramonlar nafas olayotgan muhit, fransuz qishloqlari, shaharlari tasviri tiniq berilganini, eng muhimi, asarning ruhi to'g'ri anglanganini his qildim. Nazarimda, roman ancha mukammal tarjima qilingan.

Tarjimon Hasan To'rabekovning ajoyib fazilati bor. U biron asarni o'zbek tiliga o'girmoqchi bo'lsa, uzoq yillar tayyorgarlik ko'radi. Adibning hayotiy va ijodiy yo'li bilan tanishadi. Adib mansub bo'lgan xalqning tarixini o'rganadi, oylab arxivlarda o'tiradi. Nihoyat, tarjima qilinayotgan asarning ruhiga kirib olgach, ish boshlaydi. Hasan «Qizil va qora» romani tarjimasini ustida besh yilga yaqin ish olib bordi. Ayrim sahnalarni necha martalab qayta tarjima qilgani va qoniqmaganining guvohi bo'lganman.

Jyulen to'pponchadan ikki marta o'q uzib, de Renal xonim hayotiga qasd qilishda ayblanib, qamaladi. Shunga qaramay, de Renal xonim sal-pal o'ziga kelib olgach, sevgilisini izlab, qamoqxonaga keladi. Jyu-

lenni ko'rgach, «hatto menga to'pponchadan ikki marta o'q uzganingdan keyin ham seni sevaman», deb yuborganini bilmay qoladi.

«Стоит мне только тебя увидеть, всякое чувство долга, все у меня пропадает, все я – одна сплошная любовь к тебе, и даже, пожалуй, слово... «любовь» – это еще слишком слабо. У меня к тебе такое чувство, какое только разве к богу можно питать: тут все – и благоговение, и любовь, и послушание... По правде сказать, я даже не знаю, что ты мне такое внушаешь... вот скажешь мне, чтобы я пырнула ножом тюремщика, и я совершу это преступление и даже подумать не успею. Объясни мне это, пожалуйста пояснее, пока я еще не ушла отсюда, мне хочется по настоящему понять, что такое происходит в моем сердце, потому что ведь через два месяца мы расстанемся... А впрочем, как знать, расстанемся ли мы? – сказала она улыбнувшись».

Tarjimasi: «...Seni ko'rgan zahotim, butun burchlarimni unutan-qo'yaman, hamma narsa g'oyib bo'lib, butun vujudim senga nisbatan muhabbatga aylanadi. Hatto, chamasi, «muhabbat» so'zi dilimdagi tuyg'uni to'la anglata olmasa ham kerak. Seni shu qadar sevamanki, menimcha, faqat Xudoga nisbatan shunday tuyg'u his etish mumkin: bunda hammasi bor – sajda qilish ham, itoat ham. Ochig'ini aytsam, sening sevging meni ne ko'yilarga solishini hatto o'zim ham tushunmayman... mana, agar qamoqxona nazoratchisiga pichoq sanchgin, desang, men darhol shu jinoyatni qilaman, hatto o'ylab ham o'tirmayman. Iltimos, bu yerdan chiqib ketmasimdan avval shuni menga aniqroq qilib tushuntirib ber, dilimda nelar kechayotganini chinakamiga tushunib olmoqchiman, zero, ikki oydan so'ng biz vidolashamiz... Darvoqe, yana kim bilsin, vidolasharmikimzi hali? – dedi xonim jilmayib».

Men bu yerda so'zma-so'z tarjima xususida gapirayotganim yo'q. Jyulen bilan de Renal xonim muomalalaridagi nozik nuqtalar aniq his qilinganligi va aniq berilganini aytib o'tmoqchiman. O'ylaymizki, tarjimaning qimmatini, o'ziga yarasha fazilatlarini maxsus o'rganilar.

«Qizil va qora» romani Jyulenning o'limi bilan tugaydi. Jyulen umr bo'yi haqiqat izladi, mavjud qonun-qoidalaridan qoniqmadi, u hayotdagi adolatsizliklarga, munofiqlikka, erkinlikning bo'g'ilishiga qarshi isyon qildi. Stendalning buyukligi shundaki, u o'z davrining haqqoniy manzarasini mahorat bilan tasvirlab berdi.

Pirmat Shermuhamedov

Kitobxonga

Buyuk iyul voqealari sodir bo'lib, inson fantaziyasini bo'g'ib qo'yuvchi yo'nalish paydo bo'lganida mazkur asar chop etilishga tayyor edi. Quyidagi sahifalar 1827-yili yozilgan, deya taxmin qilishga bizda to'la asos bor.



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi
<https://kitobxon.com/oz/asar/3538> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси
<https://kitobxon.com/uz/asar/3538> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно
найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/3538>